

## O‘ZBEK XALQ SEHRLI ERTAKLARIDA TILSIM BADIYYATI

**Rasulova Zebiniso Jaloliddinovna,**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek xalq sehrlari ertaklaridagi “olma” obrazi va u bilan bog‘liq syujetlar ko‘plab xalqlar folklorida uchraydigan umumiy badiiy element ekanligini, sehrlari ertaklarida uchraydigan tilsim bilan bog‘liq an‘anaviy “g‘aroyib narsa”lar qatorida uchraydigan sehrlari olma timsoli bir necha xil badiiy vazifada talqin qilinishi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** folklor, ertak, sehrlari, olma, tilsim.

**Аннотация.** В статье рассматривается образ «яблока» в узбекских народных волшебных сказках и связанные с ним сюжеты как универсальный художественный элемент, встречающийся в фольклоре многих народов. Отмечается, что символ волшебного яблока, относящийся к числу традиционных «чудесных предметов», связанных с магией в волшебных сказках, может интерпретироваться в нескольких художественных функциях.

**Ключевые слова:** фольклор, сказка, волшебный, яблоко, магия.

**Abstract.** The article examines the image of the “apple” in Uzbek folk fairy tales and the plots associated with it as a universal artistic element found in the folklore of many peoples. It is noted that the symbol of the magical apple, which belongs to the category of traditional “wonder objects” associated with magic in fairy tales, can be interpreted in several artistic functions.

**Keywords:** folklore, fairy tale, magical, apple, magic.

**Kirish.** Ertak o‘zining barqaror syujeti, kompozitsiyasi, an‘anaviy motivlar, epik obrazlar va badiiy detallar tizimiga ega bo‘lib, mustaqil janr sifatida tarixiy asoslari ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari, magik qarashlari, e‘tiqodiy inonchlari, qadimgi marosimlar, urf-odatlar va arxaik rituallarga borib taqaladi. Shuning uchun ham ko‘plab epik obraz va motivlarning tadrijiy rivoji jarayoni “mif→marosim→folklor” bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Dunyo folklorshunosligida olib borilgan tadqiqotlar natijalari folklorning turli janrlarida xususan xalq sehrlari ertaklarida “olma” obrazi va u bilan bog‘liq syujetlar ko‘plab xalqlar folklorida uchraydigan umumiy badiiy element ekanligini ko‘rsatadi. U ertakda syujet markazida turib, voqealarning rivojlanib borishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy vosita sifatida gavdalanib o‘zida hayot, mangu hayot, sog‘lik, boylik, tug‘ilish, yoshlik, muhabbat, farzand, hosildorlik ramzini aks ettiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tilsim bilan bevosita aloqador “g‘aroyib narsa”lar sehrlari-fantastik ertaklarning syujet qurilishini shakllantiruvchi poetik vositalardan biri sifatida ertak janri badiiyatining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular bilan aloqador epik motivlar silsilasi ertak syujetini yuzaga keltiradi va personajlar sarguzashtlaridan iborat epik voqelikni harakatga keltiradi. Ertak qahramonlarining xarakterini ochib berishda, xususan, voqealar markazida turuvchi yetakchi personajning epik qiyofasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ertak syujetini tashkil etgan turli xil motivlar tugun zaminida yuzaga keladi. Tilsim syujet chizig‘ida asosiy detal bo‘lib, voqealar harakatini yuzaga keltiradi, qahramon bilan bog‘liq hodisalarning g‘ayritabiiy chiqishi, tugunning g‘ayri muqarrariy yechimini ta‘minlaydi.

Tilsim uzuk, shamshir, oynai jahonnoma, qaynar xumcha, ur to'qmok, ochil dasturxon, chaqmoqtosh, sirli cho'p, tutatqi, sirli olma singari sehrli buyumlar mo'jizasida amal qiladi. Yalmog'iz, dev, ajdar, yovuz kuch, pari, semurg', uchar otlar esa qahramon atrofida yordamchi kuch sifatida faoliyat ko'rsatib, ezgulikni ato etadilar, nihoyat timsoliy obraz yaratadilar [6, 105].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada o'zbek xalq sehrli ertaklaridagi tilsimli olma mevasi magik vosita sifatida talqin qilinadi. Sehrli olmaning shifobaxsh xususiyatlari muhokama qilinadi. Bir necha sehrli ertaklar misolida qiyosiy o'rganiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Xalq sehrli ertaklarida uchraydigan tilsim bilan bog'liq an'anaviy "g'aroyib narsa"lar qatorida uchraydigan sehrli olma timsoli bir necha xil badiiy vazifada talqin qilinishi kuzatiladi. O'zbek xalq sehrli ertaklarda faol qo'llaniladigan sehrli olma kishiga sog'lik va yoshlikni qaytarib beruvchi magik vosita sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun "Sehrli olma" ertagida "Olma gulini hidlasa, kishining umri uzayadi, mevasini yesa o'lgan kishi tiriladi, xorazmdan yozib olingan "Malikai Gulizor" ertagida o'lik malikaga olmani hidlatishganda, u tiriladi, "Niyozboy va Ayozyboy" ertagida olma qari kishi yesa yosh bo'ladi", "Dilsiz Qahqah" ertagida esa o'lim to'shagida yotgan qizga podsho bog'idagi bir tup olma daraxtining mevasidan uch dona uzib kelib, birini ezib suvini ichkizilganda, ikkinchisini ezib to'ppasini berganda, uchinchisini qo'lga tutqazib qo'yaishganda qiz qo'lga berilgan olmani bir tishlab, o'rnidan turib ketadi" gan magik vosita sifatida badiiy talqin qilingan.

Folklorshunos olim J.Yusupovning yozishicha, olmani hidlaganda tirilish motivi ertak qahramonining olma yeb homilador bo'lgan ayol farzandi sifatida talqin qilinishi bilan bevosita aloqadordir. Ya'ni "olma hidi – tiriklik, hayot alomati bo'lgani uchun Malikai Gulizor uni iskab, qayta tiriladi. Olmani hidlab tirilish bu ramziy detal bilan bog'liq an'anaviy syujet elementlari tizimidagi motivlar blokiga mansubdir. Epik qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi befarzand shoh xotini yoki kekxa kampirning olma yeb xomilador bo'lishi motivini ham o'z ichiga oladi" [14, 104]. Namangan viloyatidan yozib olingan "Hasan bilan Hurliqo" ertagida [1, 246] esa bir cho'pon nay chalaman deb sozini olish uchun qo'yniga qo'l solganida qo'lga ikkita olma ilinadi. Olmalarni olib hidlab ko'rsa, ulardan yosh chaqaloqning bo'yi anqiyotganini his qiladi. Ana shu olmalar orqali ertak qahramoni o'zining yo'qolgan farzandlari tirikligini bilib oladi va uzoq sarguzashtlar orqali ularni axtarib topadi.

Ko'pgina doston, ertak kabi epik janrlar hamda xalq qo'shiqlarida sehrli olma farzand timsolini o'zida ifodalab keladi. Masalan, "Shunqor" ertagida qizil, sariq, oq rangdagi uchta olmadan uchta farzand tug'iladi [10,48]. Bu kabi holatlar "Kichkinajon kichkina", "Zulayho" kabi boshqa ertaklar syujetida ham mavjud. "Olma" detali bilan bog'liq epik motivlarning tarixiy asoslari va badiiy vazifalarini yoritishda folklorshunos A.Musaqulovning "Olma og'ochidan yiroq tushmas" maqolidagi olma poetik ko'chim sifatida ota-ona va farzandni anglatishi, mifologik tafakkurda esa ko'chimsiz shu ma'noga

ega bo'lishi"[9, 33] haqidagi fikri muhim ilmiy qimmatga ega. Chunki bu mulohaza o'zbek xalq ertaklaridagi "sehrli olma" detaliga aloqador motivlar zamirida qadimgi ajdodlarimizning serhosillik g'oyasi bilan bog'liq mifologik tasavvurlari yotishini ko'rsatadi.

Marosim folklorida daraxt kultining serhosillik g'oyasi bilan bog'lanib ketishi halati ham kuzatiladi. Bu holat har yili erta bahorda o'rik daraxti shoxlariga arqon bog'lab arg'imchoq uchish udumida yaqqol aks etgan. Daraxtlarning tanasi, barglari bilan birga mevasini yegan ayol farzand ko'rishi haqidagi inonchlar ham daraxtlarning muqaddastirilishi asosida kelib chiqqan hosildorlik kulti bilan bog'liqdir. Bu inonch o'zbek xalq ertaklarida ham o'z aksini topgan" [11, 38].

Ba'zi ertaklarda olma mifologik personajlarning evrilish qiyofasi sifatida aks ettirilsa, "Guliyahqah" ertagida olma pariga aylanadi. "Tilla taroq" ertagida esa ertak qahramoni Odilbek "Devlar meni olmaga aylantirib, shu joyga keltirib qo'yishgan edi" – desa, "Ming bir xolli ot" nomli ertakda "Xolmirzajon o'z singlisini chiqarib topshirib, gadoy bilan xushlashdi. Bu ham avvalgi gadoylardek qizni olma qilib qo'yniga solib olib ketdi", "Kimyogar boyning o'g'li" ertagida esa "Kimyogarning o'g'li axtarib-axtarib bir tog' o'ngiridan qo'rg'on darvozasini topib, kalit solib qulfni ochibdi, ichkari kirsa, bir ajoyib bog', suvlar jildirab, gullar ochilib, qushlar sayrab turibdi. Aylanib bog'ning burchiga borib pishib turgan naqsh olmaga ko'zi tushibdi. "Zab olma ekan-da", deb, bitta olmani uzib tishlashi bilan to'ng'iz bo'lib qolibdi. Hash-pash deguncha bir qancha yerni tumshug'i bilan haydab tashlabdi. Oxiri charchab bir oq olma daraxtiga suyanibdi; daraxt silkinib bitta olma kimyogarning o'g'li yoniga yumalab tushibdi. Shuni yegan ekan-ki, shu zamon odam holiga kelibdi", Deb hikoya qilinadi. Bu kabi holatlar "Gulbadan", "Kenjatoy va maxluq", "Erni er qiladigan xotin" kabi boshqa ko'plab o'zbek xalq ertaklarida ham uchrashini ham kuzatamiz.

Olma timsoli ertaklarda hamma vaqt sehrli ko'rinishda gavdalanitilmaydi. Aytaylik, "Yetti pakana" ertagida[4] o'gay ona o'zidan ko'ra go'zal bo'lgan yetim qizning barnoligiga hasad qilib, uning oldiga gadoy qiyofasidagi maston kampirni jo'natadi. Maston kampir o'gay ona bergan zaharlangan olma yordamida qizni o'ldiradi. Ko'rinib turibdiki, bu ertakda g'aroyib, tilsimli olma haqida emas, balki g'arazli maqsadda zaharlab, zararli ashyoga aylantirilgan oddiy olma ustida so'z yuritilmoqda.

"Sirli oynak" ertagida olmaning chanqoqni bosadigan, to'q tutadigan xosiyati bor.

"Orzi bilan Qambar" ertagida esa sirli xususiyati quyidagicha hikoya qilinadi: Meva bozorini oralab, senga olma olib keldim. Bu olmalarni bahuzur o'tirib ye. Yana bozordan biror narsa kerak bo'lsa, menga aytsang, olib kelaman. Ammo yana olmalarni birortasini o'ynab-o'ynab devorga urma, – deb yana otini minib ketibdi. Shahzoda olmalarni yeb, akasining ketganini bilib, o'zidan-o'zi kulib: "Akam olmani devorga urma degan edi. Qani, bir urib ko'ray-chi, nima bo'lar ekan", deb qo'lidagi olmani o'ynab-o'ynab devorga uribdi. Shu payt devordan bir eshik ochilibdi. Shahzoda tura solib, eshikdan o'tibdi. Eshik

o‘zidan-o‘zi berkilibdi. Shahzoda atrofga qarasa, bir bog‘: olma, anor, anjir. Alqissa, mevali daraxtzor ekan. Olma yeyman deb qo‘lini daraxtga cho‘zsa, olma tepaga chiqib ketibdi. Axiri Shahzoda olma ololmay ovora bo‘lib, rastani oralab, bir qizning ustidan borib qolibdi. U parizod qiz oldiga tog‘ora qo‘yib, sochini yoyib, yuvayotgan ekan. Shunday qarasa, bu qiz otasining hujrasida ko‘rgan suratdagi parizoddan ham ziyod ekan. Parizod ikki qo‘li bilan farqini ayirib turgan ekan birdan ko‘zi Shahzodaga tushib, bir puflab yuboribdi. Shahzoda uning shamolini zarbiga o‘qday otilib, ochilgan eshikdan o‘tib ketibdi. Eshik taqqa berkilibdi. Shahzodaning bo‘yni egri bo‘lib qolibdi.

Ana endi kech tusha boshlabdi, bu yoqdan akasi ancha olma bilan kelibdi. Shunday qarasa, ukasining bo‘yni egri bo‘lib turibdi. Akasi “kuf-suf” deb uning bo‘ynini to‘g‘ri qilib qo‘yibdi. Shahzoda akasiga olmani devorga urganini, devordan bir eshik ochilganini, u yerda sochini yuvib turgan bir parizodni ko‘rganini so‘zlab beribdi.

“Mislabu” nomli xalq eragida hikoya qilinishicha “– Bo‘lmasa, sen devor tagidan lahim kavla. Lahim Mislabuning hovlisidagi bir tup qizil olma daraxti tagidan chiqsin, u olmaning tagida bir oltin qoziq bor, shu qoziqqa Mislabuning oti bog‘langan. Ot sening borganingni bilmasin, bilsa kishnab yuboradi. Mislabu o‘rnidan turib kelgan dushmani o‘ldiradi. Shuning uchun mana shu to‘rvadagi kishmishni shu otga ber, yegandan keyin kishnamaydi, – debdi.

Ko‘plab o‘zbek sehrli ertaklarida (“Suhrob bilan Muzrob”, “Yalmog‘iz qiz”, “Qilich Qora”, “Masturaxon”, “Tulpor ot” kabi) malika baland ko‘shkidan turib, kuyov sifatida tanlanajak yigitga yoki suygan yoriga qarata olma otishiga guvoh bo‘lamiz. Umuman aytganda, ertaklarga xos bu an’anaviy motiv aslida hayotiy asosga ega bo‘lib, uning zaminida qadimiy milliy urf-odatlarimizdan biri yotadi. Bu o‘rinda olma sevgi-muhabbat ramzini o‘zida ifodalab keladi va “g‘aroyib narsa” emas, ramziy detal sifatida qaraladi. Olmaning sevgi-muhabbat va farzand ramzi sifatida talqin qilinishi bilan bog‘liq “olma otish” nomli an’anaviy xalq o‘yini ham mavjud bo‘lgan. “Xorazm viloyatida bayram, sayil va hayitlarda qizlar halinchak uchishayotganda yigitlar o‘ziga unashtirib qo‘yilgan qizga olma otishi udumi qayd etilgan. Navro‘z bayrami, “qizil gul” bayrami, “qovun sayli” va boshqa marosimlar, hayitlarda qizlar yig‘ilishib halinchak – “sorinjoq” uchishgan. Unashtirilgan qizlar ham o‘z yangalari hamrohligida halinchak uchgani kelganlar. Shunda kuyov o‘n-yigirma dona olmani olib jo‘ralari bilan kelgan va olmalarni bir do‘stining qo‘liga berib tomosha qilib turgan. Agar sorinjoqda o‘ziga fotiha qilingan qiz uchayotgan bo‘lsa, kuyov bo‘lg‘uvchi yigit kelinni ko‘rib “yuz ko‘rim”, ya’ni “hayitlik” sovg‘a bergan va sekin olma bilan qizni urgan. Boshqa yigitlar ham sorinjoqda uchgan qizlardan o‘zlari sevganlariga olma otishgan. Ba’zan yigitning olmasi uni sevmagan qizga otilsa, qiz chap berib olmani o‘tkazib yuborgan. “Olma otish” udumi chog‘ida quyidagi an’anaviy xalq qo‘shiqlari ijro etilgan:

Olma otdim yorimga,

Qayta menga otsin deb,  
Ko‘ngli qolgan yorining  
Qayta ko‘nglin topsin deb.

Oq olma, qizil olma,  
Olmaga nazar solma.  
Olmaga nazar solsang,  
O‘z bilganingdan qolma.

Olma otdim, obon ko‘rdim,  
Bir do‘stimning uchakinda  
Man saningdek jonon ko‘rdim.

Qizil olma ushladim,  
Qizlar sari tashladim,  
Ko‘p talashmang, qizlarjon,  
O‘z yorim deb tashladim.

Olma otdim oshirib,  
Orqa, o‘ngingga tushirib  
Qachongacha yuramiz,  
Sevgimizni yashirib [8, 84].

Sehrli ertaklardagi “g‘aroyib narsa”larning obrazlantirilishida xayoliy uydirmadan foydalanishning o‘ziga xos epik qonuniyatlari va bunga asos bo‘luvchi badiiy-estetik omillar mavjud. Sehrli ertaklarda “g‘aroyib narsa”larni tasvirlashda turli xil poetik vositalarni qo‘llashda o‘zbek ertakchilarining har biri o‘ziga xos epik uslubdan foydalangan.

Ertak qahramoniga “g‘aroyib narsa”larni tuhfa qiluvchilar ham o‘ziga xos sirliligi, g‘aroyib ko‘rinishi, magik kuch-qudrati bilan alohida e‘tiborni tortadi. Folklorshunos Sh.Shomusarovning fikricha, “sehrli-sarguzasht tipidagi ertaklarning qahramonlari g‘aroyib predmetlarga quyidagi yo‘llar bilan erishadilar: 1) homiy tomonidan qilingan ehson; 2)qilingan yaxshilik evaziga berilgan hadya; 3) qahramonning ota-onasidan qolgan meros; 4) epik shartni bajarish chog‘ida o‘zga olamdan keltirilgan narsa” [12, 167].

Bizning fikrimizcha esa, ertak qahramonining “g‘aroyib narsa”larni qo‘lga kiritishini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Epik qahramon vafot etib ketgan ota-onasi, ya‘ni marhumlardan olgan “g‘aroyib narsa”lar.* Ertak qahramoni sehrli buyumni ota-onasidan meros qilib olishi motivining tarixiy asoslari o‘zbek shomon folkloridagi mifologik afsonalarga borib

taqaladi. Chunki baxshi va kinnachilarning g'ayrioddiy qobiliyatga erishuvi to'g'risidagi afsonalarida "g'aroyib narsa"ni o'z avlodlaridan meros qilib olishi motivi ko'p uchraydi. Baxshilar o'zlarining baxshi bo'lishi haqida aytgan afsonasida tush ko'rganligini va tushida bir umr baxshichilik qilib o'tgan otasi yoki bobosi unga qo'l berib, boshi uzra do'mbira qo'yib ketganligini aytadilar. Shuningdek, kinnachi ayollar momosi yoki onasi tushida qamchi berganligini, uyg'onganda esa qamchi boshi tepasida turganligini uqtirmoqchi bo'ladilar. Bu bilan ular o'zining ilohiy nazarga tushganligini hamda egallagan kasbining sirliligini ta'kidlashga va shu yo'l bilan odamlarga kuchliroq ta'sir ko'rsatishga urinadilar.

2. ***Qahramon raqib-personajni yenggach, undan tortib olgan "g'aroyib narsa"lar.*** Epik qahramonning marhumlardan hamda yalmog'izdan "g'aroyib narsa"lar olishi motivi orqali aslida ajdodlar kultiga aloqador tushunchalar, ularning homiyligi to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlar badiiy ifoda etiladi. Binobarin, qadimgi insonlar marhumlar o'limdan so'ng o'z yaqinlariga himoyachi, homiy bo'ladi, deb tushunganlar [7, 77].

3. ***Qahramonga totem va kult sifatida qaraladigan jonivorlar taqdim qilgan "g'aroyib narsa"lar.*** Buning uchun qahramon o'sha hayvonga biror qiyin vaziyatda yordam ko'rsatib, uni o'limdan asrab qoladi.

4. ***Mifologik personajlar taqdim qilgan "g'aroyib narsa"lar.***

Ko'plab ertaklarda olmalar oltin rangida tasvirlanadi. Bu ularning sehrli va qimmatli ekanligini bildiradi.

Tilsimli ertaklarda, odatda, muayyan so'zlar vositasida buyumlarning sehr-joduga, g'aroyiblikka egaligi ta'kidlanadi. Jumladan, *sehrli, sirli, tilsim, oltin, tilla, olmos* kabi so'zlar shular sirasiga kiradi. Ular ko'magida hosil qilinadigan sifatlashli birikmalar ertak syujetiga g'ayrioddiylik, xayoliy uydirma, voqelikni fantastik tarzda bo'rttirish xususiyatini baxsh etadi. Masalan, *olmos qilich, sirli shamchiroq, sehrli nay, tilsim g'or, oltin kovushcha, tilla baliq, oltin olma* kabilar shular jumlasidandir. E'tibor qilinsa, sehrli ertaklarda ko'pincha *oltin* yoki *tilla* sinonimlari vositasida buyumga g'aroyib sifat yuklatiladi. Bu sifatlashlarning ma'lum buyumga qo'shib aytilishi o'ziga xos sirlilikni keltirib chiqaradi. Agar bu sifatlashlar *zirak, qoshiq, toj* kabi so'zlarga qo'shib kelsa, u qadar shubha uyg'otmaydi. Lekin ular *olma, behi, kovush, daraxt* kabi so'zlarga qo'shib kelganda bir qadar shubha tug'diradi. Ana shu shubhali qarash ta'sirida tinglovchilar ko'nglida bu g'ayritabiiylik, g'aroyiblik katta qiziqish uyg'otadi va ular bu tilsimotning qanday vujudga kelib, qanday mohiyat kasb etishini, nimalarga qodir ekanligini bilishga intilib qoladilar. Shuning uchun sehrli-fantastik ertaklar tinglovchilar uchun hamisha qiziqarli tuyulgan.

"Guluyalar bilan Qalandarbek" ertagida shunday parcha uchraydi: "*Oltin qasrning ichidagi hamma narsa oltindan emish. Gulzorlarda ochilib turgan gullar ham, daraxtlardagi mevalar ham oltindan emish... Tilla qozonlarda ovqatlar pishib yotgan emish... Tilla obdastalarda suvlar to'ldirilgan emish.* Bu yerdagi *gullardan tortib, idish-*

*tovoqlargacha tilla emish-da! Oltin daraxtdagi oltin olmalar... Oltin qozon chetidagi tilla kapkir...* [5, 60]

Bu parchada *oltin* va *tilla* sifatlashlari orqali “g‘aroyib narsa”lar – sirli narsalarning obrazlantirilgan talqini vujudga keltirilmoqda. Ayni paytda ularning mavjudligi real hayot voqeligiga zidligi bois bu jumalardan keyin gumon va taxminni, eshitilganlik va mish-mishni ifodalovchi “emish” so‘zi parchada alohida urg‘u bilan keltirilgan.

**Xulosa.** Sehrli-fantastik ertaklarda *oltin*, *tilla*, *olmos*, *yoqut*, *kumush* kabi sifatlovchilar ko‘magida hosil qilinuvchi tilsim buyumlarning ko‘p keltirilishi bejiz emas. Chunki mehnatkash xalq hamisha to‘kin va farovon, boy turmushni orzu qilgan. Xalqning mana shu ezgu orzu-niyati esa ko‘pincha xayoliy uydirmaga boy fantastik ertaklarda aks ettirilgan. Ertakshunoslarning fikricha esa, “oltin” epiteti quyosh rangi ma’nosini o‘zida ifoda etadi [3, 147]. Bu fikrda ham jon bor. Ehtimol, zardushtiylik dini hukmronligi davrida odamlar olovga va uning yuksak manbasi hisoblangan quyoshga sig‘inar ekanlar, har bir mavjudot timsolida uning tajallisini ko‘rib, shu holatni *oltin* va *tilla* sifatlashlari orqali badiiy ifodalagan bo‘lishi mumkin.

O‘zbek xalq sehrli ertaklarini xalqimiz tarixi, madaniyati, o‘ziga xos turmush tarzi, mifologiyasi, arxaik marosimlari va qadimiy e’tiqodiy qarashlarini o‘rganishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham sehrli ertaklardagi “g‘aroyib narsa”larning o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi, tarixiy ildizlari va poetik vazifalarini tadqiq qilish ertak janrining badiiy-estetik xossalarini belgilashga asos bo‘ladigan muhim xulosalarni beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гулпари / Наманган эртаклари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.246.
2. Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.5.
3. Зуева Т.В., Кирдан Б.П. Русский фольклор. Учебник. – М.: Наука, 2002. – С.147.
4. ЗЎФА. Инв.№147.
5. Илон пари. ЎХФ. Сеҳрли эртақлар. III китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б.60-61.
6. Имомов К. Ўзбек халқ насри. – Тошкент: Фан, – Б.105
7. Имомов К. Ялмоғиз – жодугар образи талқинига доир / Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.77-88;
8. М.Жўраев, Л. Худойкулова. Маросимнома. –Тошкент, 2008. – Б 84-85.
9. Мусакулов А. Ўзбек халқ кўшиқларининг тарихий асослари. – Тошкент, 1994. – Б.33.
10. Само тулпори. ЎХФ. V китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б.48.
11. Ўзбек фольклорида ҳаёт дарахти. М.Жўраев, Д. Саттиева. – Тошкент. 2010. – Б. 38-39.
12. Шомусаров Ш. Араб-ўзбек фольклори тарихий-қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002. – Б.167
13. Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртақчилик анъаналари алоқа лари тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.115;
14. Юсупов Ж. Хоразм эртақлари поэтикаси. – Урганч, 2005. – Б.104-105.